

**HALIMA AHMEDOVA SHE'RIYATIDA YASHILLIKNING BETAKROR
JILOSI.***Jumanazarova Rayxon Jaloliddinovna*

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek she'riyatining iste'dodli vakili Halima Ahmedova ijodi faoliyati tahlilga tortilgan. Jumladan, shoira Halima Ahmedova ijodida milliylik, urf-odatlar, borliq, rang baranglik, tinchlik, yashillik orqali ifodalangani o'rganilgan

Kalit so'zlar: yashillilik, borliq, milliylik, ijod, kuzgi bog'lar, tinchlik, rang baranglik, urf-odatlar.

Kirish**Аннотация**

В данной статье анализируется творчество Халимы Ахмедовой – талантливой представительницы узбекской поэзии. В частности, изучено, что поэтесса Халима Ахмедова выражала в своем творчестве национализм, традиции, бытие, цвет, мир, зелень.

Ключевые слова: зелень, существование, национальность, творчество, осенние сады, мир, цвет, традиции.

Annotation

In this article, the work of Halima Akhmedova, a talented representative of Uzbek poetry, is analyzed. In particular, it was studied that the poetess Halima Akhmedova expressed nationalism, traditions, existence, color, peace, and greenness in her work.

Keywords: greenness, existence, nationality, creativity, autumn gardens, peace, color, traditions.

O'zbek she'riyatining yorqin namoyondasi Halima Ahmedova ijodida yashil rang, yashillik alohida muhim o'rinni egallaydi. Shoira ijodidagi yashil rang ortida uning zimmasiga yuklanayotgan ma'nolar o'zbek xalqining ma'naviy – axloqiy qadriyatlarini ifodalab beradi. Ya'ni yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida insonlarga kuch baxsh etadi va shu bilan birgalikda yashil rang - hayot, tiriklik, yashnoqlik bag'ishlaydi insonga. Shoira she'riyatida yashillikning mohiyati shundan iboratki, u hamisha o'zbek xalqining ma'naviy- axloqiy qadriyatlarini o'zida aks ettira oladi.

Shoira ijodida shunday satrlarga duch kelamiz:

Robbim nigohlaring naqadar **yashil**,

Robbim nigohlaring naqadar **yashil**.

Bunda o'zbek xalqining Alloh tomonidan berilgan bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbat, qadr-qimmatlilik hususiyatlarini ifoda etadi va yana o'zbek xalqining qadriyatlarini har bir insonning ongiga singdirishda haq yo'lida adolatlilik, ezgu amallar sari chorlaydi, yon atrofimizda kechayotgan jarayonlarni, borliqni kuzatishga yashillikni mazmun jihatdan o'qishga undaydi.

Shoira she'rlarida qishloqlarning sof, toza havosi, chiroyli tabiati, go'zal, hilol, tiniq suvlari orqali tinchlik hotirjamlik tuyg'ularini ham yoritib beradilar.

- Asli qishloqdanman, manglayini maysa o'rgan qishloqdan deb yozadi.

Bunda qishloqning yam-yashil dov daraxtlari, yashil bog'lari, maysalari ifodalanadi. Insonni manglayigacha, ya'ni peshonasigacha o'sgan maysalar tinchlikni ifodalaydi. U shu qadar o'sdiki, unga hech kim ozor bermadi. Buning zamirida esa tinchlik va totuvlik aks etib turibdi.

- Daraxtlarni ko'ziga qarayman deydi shoira, ular naqadar sof, naqadar toza, balki dunyodagi barcha go'daklarning nigohi daraxtlar ko'zidan olgan andoza.

Shoira ijodini o'rganar ekanmiz quyidagi satrlarda dush kelamiz.

Derazadan boqqan musichalardan

So'raylik: Tilingda qanday xushxabar?

Yurtimizga yam-yashil bahorning kirib kelishi, o'zi bilan o'zbek xalqining urf odatlarini boshlab kelishi, yangi kun, yangi yil deb atalmish "Navro'zi olam", urf odatlar aks ettiriladi. Har bir xonadonda



musichaning ovozi esa, “Musicha to‘y keltirar” ma’nosida aks ettiriladi.

Ko‘zimni ochaman, **yashil** boqar tong,
Dardlarim uloqib ketgan qaygadir,
Derazadan shirin jilmayib boqib,
Sening manzilingni aytadi yomg‘ir.

Inson erta tongda ko‘zini ochib yashillikka burkangan hayotni his etishi, tongning nigohi yashil ekanligini his qilish holati tasvirlanadi. Ichimdagi qancha dardlarim uyg‘onganida qayergadir g‘oyib bo‘lgan deb yozadi shoira. Derazamdan esa, yomg‘irlar shirin jilmayib, sening manzilingni aytadi deya ta’rif keltiradi.

Oilalar ochar rizqning dasturxonini,
Nonushtaga ichishadi umid sharbatini.
So‘ng ko‘zlarga surtishadi shukronalikni,
Haqqa yetar bu duoning **yashil** qanoti. (31 b.)

Har bir o‘zbek oilasida erta tongdan dasturxon yozilib, umid sharbati deya ta’rif berilayotgan taomlarni, rizq-ro‘zni ulashiladi, so‘ngra esa shukronalik keltirib, qo‘llarini duoga ochadilar. Yuqorida keltirilgan satrlar orqali shoira o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan iliq insoniylik hususiyatlarini ifodalab beradi.

Na bir tush edim man, Na haq xayoli,
Faqat qalbim edi **yam-yashil** daryo.
To‘rt tomon qiblaga mengzaydi bugun
Bugun o‘zim majnun, o‘zimman sahiro. (41 b.)

Bilmayman, tushimmi yoki xayolim, lekin qalbim yam- yashil, go‘zal, beg‘ubor xuddi to‘lqinlanib oqayotgan daryoga qiyoslanadi. Lekin bugun esa, sahroga aylandim, qani o‘sha yam –yashil daryo. Ham majnunman, ham sahroga aylandim deya ta’rif beradi.

Yashil edi nigohlarim juda ham **yashil**,
Nozanin bog‘ cho‘milganda kun shu’lasiga.
Uzumlarning shira bosgan ovozi bilan
Jo‘r bo‘lardim chumchuqlarning ashulasiga. (42 b.)

Senga boqar nigohlarim juda ham yashil va beg‘ubor edi, kun shu’lasiga cho‘milgan nozanin bog‘ ham hayratda edi. Uzunning shirasiga qiyos qilinuvchi ovozlarim bilan esa, chumchuqlar chug‘urlashgani kabi sening ismingni aytib nola qilaman.

Yuragim shamolga o‘yinchoq,
Parishon tortadi tunlarim.
Ishqday **yashil** edi va qachon,
Sarg‘ayib ulgurdi kunlarim. (45 b.)

Shamol yuraklarni har tomonga esib, o‘yinchoq qilib o‘ynaydi, tunlarim ham parishon, yuraklar notinch. Lekin qachonlardir ishqim yam-yashil edi, bilmay, sezmay qoldim, qachon u sarg‘ayib xazonga aylanganini.

O‘zimdan olisda yashayman,
Xobgohim ayriliq kaftida.
Isitib ber hayot, ruhimni
Yam-yashil nafaslar taftida.(45 b.)

Yashayapmanu lekin, o‘zim o‘zimdan uzoqlarda, o‘rtamizda ayro yo‘llar ayriliq, o‘zimni sezmayman, o‘zimni tanimayman. Yashil hayot ruhimni isitib ber, bu iliqlik, yashillik ortidan o‘zimni topishga imkon ber deya strlarda ta’riflar keltiriladi.

Bilaman u kunlar **yashildir**,
Titraydi yillarning shoxida.
Masehning ohi-la sevgini
Tiriltirgum yoshlik bog‘ida....(49 b.)

Shoira yoshlikning har bir kunini yashillikka, beg‘uborlikka, poklikka qiyoslaydi. O‘z she’riyatida o‘sha beg‘uborlikka, poklikka esa, **Yoshlik bog‘i** deya nom beradi. Yoshlik bog‘ining yashilligi esa har bir dilni titroqqa soladi.

Shoira Halima Ahmedova she’riyatida o‘zbek adabiyotida takrorlanmas o‘ziga xos bir serjilo uslubni har bir kitobxon anglab yetadi. Shoira keltirayotgan har bir satr mohiyatan mazmundor ekanligini his qilamiz.



Halima Ahmedova ijodi haqida No‘mon Rahimjonov shunday yozadi:

“Shoira lirikasidagi yashil rang, bo‘yoq har bir she‘rda yangi-yangi ma‘nolarni anglatishiga ko‘ranufuzlidir. Yam-yashil daryo, yashil nigoh, ishqday yashil, yalpizlar xayoli yam-yashil, yam-yashil nafas tafti, xayol kengliklari yashil, “qachonlardir men ham yam-yashil edim, Daryoga talpingan jilg‘aday yashil”, “ Yashil kundan qolgan gardman ehtimol”, “ Haqiqatning rangi yam-yashil”, “ Va yana kimdir aytgan edi: avval va oxirni to‘ldirar yashil”, “ Borliq va yo‘qlikning yashil ovozi” va boshqalar.

Yashillik – ilohiy nigoh, sehrli jozib ovoz shaklida lirik qahramon vujudini yashash zavqi-sururi, hissiyotlari bilan chulg‘aydi. Yashillikning go‘zallik mohiyati shundan iboratki, u hamisha ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar maqomida yuz ochadi. Xususan, birda mehr-muhabbat ko‘rsatsa, boshqa holatda tanish ovoz bo‘lib yuragiga cho‘g‘ soladi. Hayotning ma‘nosini uqib yashashga undaydi. Estetuk qadriyatning iroda kuchlarini ezgu amallar sari yo‘naltirish barobarida mushohada yuritishga, atrof – tevaragida kechayotgan jaraynlarni, mulki borliqni kuzatishga, mazmun o‘qishga undaydi” deb yozadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova H. “Erk darichasi” Adabiyot va san‘at, 1996.
2. Ahmedova H. “Tiyramoh” Adabiyot va san‘at, 2005.
3. Ahmedova H. “Tiyramoh” Adabiyot va san‘at, 2011.
4. Ahmedova H. Yashil.-T.:O‘zbekiston, 2016
5. “Kitob dunyosi” gazetasi veb-sahifasi.
6. «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasi, 2014 yil 6-son.

